

## TALABALARDA KREATIVLIKNI BAHOLASH

*Malika Jo'rayeva Ikromjon qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU, Pedagogika va psixologiya fakulteti  
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Kreativlik nima? Kreativlikni baholash mumkinmi? Agar shunday bo'lsa, qanday qilib? Xuddi shu va shu kabi savollarga javob topish maqsadida olib borilgan ilmi izlanishlar natijasida mazkur maqola vujudga keldi. Ta'limdagi ijodkorlikka yondashuvlar haqida ham maqolada fikr-mulohazalar yuriladi.

**Kalit so'z va iboralar:** kreativlik, kreativlikni baholash, ta'limda ijodkorlik, talaba, kreativ yondashuv.

**Аннотация:** Что такое творчество? Можно ли оценить творчество? Если да, то как? Эта статья создана в результате научных исследований с целью поиска ответов на одни и те же и похожие вопросы. В статье также комментируются подходы к творчеству в образовании.

**Ключевые слова и фразы:** креативность, оценка креативности, креативность в образовании, студент, творческий подход.

**Abstract:** What is creativity? Can creativity be assessed? If so, how? This article was created as a result of scientific research to find answers to the same and similar questions. The article also comments on approaches to creativity in education.

**Key words and phrases:** creativity, assessment of creativity, creativity in education, student, creative approach.

### KIRISH

Ta'lim sohasi haqida so'z yuritganda uning ishtirokchilarida kreativlikning mavjud ekani yoxud rivojlantirish masalasi, bundan tashqari kreativlikni baholash mavzusi borasida suhbat qurilsa, suhbat muqarrar ravishda yuqorida ta'kidlangani singari muhim savollarga aylanadi. Bu masalalarda ko'pgina odamlar baholash, xususan, standartlashtirilgan baholash haqida kuchli fikrga ega ekanliklariga guvoh bo'lish mumkin. Hamda aksariyati kreativlikni shu tarzda o'lchash mumkinmi yoki kerakmi degan bir xil darajadagi kuchli fikrning egalari ekanliklarini ham namoyon etadilar.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Annotatsiyada berilgan savollarga aniqlik kiritish maqsadida alohida vaqt ajratish muhim ekaniga amin bo'lindi. Savollarga oddiygina «ha» yoki «yo'q» deb javob bermoqlikdan ko'ra, mavzuni yanada munozaraga aylantirish — yanada nozikroq diaologga imkon beruvchi savollarni berish pedagogika va psixologiyada ta'lim beruvchi va oluvchilar uchun ham qiziqarli ham foydali bo'lishi mumkin deb

qaraldi. Masalan: Baholash deganda aynan nima nazarda tutiladi? Kreativlikning ba'zi jihatlari bormi, boshqalarga nisbatan baholashga ko'proq moyil bo'ladimi? Kreativlik kabi konstruksiyaga ko'proq va kamroq mos keladigan kuzatish, hujjatlashtirish va o'lchash uchun muayyan yondashuvlar bormi? Baholashning ba'zi yondashuvlari ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yordam bera oladimi? Nima uchun?

Bugungi kunda dunyo bo'ylab trendlar doimiy ravishda va juda tezkorlik bilan o'zgarib turishi sir emas. Bu trendlar ta'limga, o'qishga, o'rganishga, ishga kirish jarayoniga va albatta, butun jamiyatning hayotiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. XXI asrda yuqori sur'atda rivojlangan va juda ko'plab an'analarning o'zgarishiga sabab bo'lib kelayotgan trend bu — kreativlik bo'ladi.

Kreativlik! Ha, bu shunchaki bir qobiliyat-ku deb aytish mumkin. Ammo ham nazariy ham amaliy va bu boradagi olib borilgan tadqiqot natijalarini o'rganish asosidagi bilimlarga suyanib, quyida faktlar bilan kreativlik nega eng muhim omillardan biriga aylanayotgani haqida kengroq mushohada olib boriladi.

Avvalo, kreativlik aslida nima ekaniga javob berib o'tish lozim.

**Kreativlik** – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot)lar yaratilishi uchun eng kerakli vosita bu *kreativlik*dir.

### TADQIQOT NATIJALARI

Endi kreativlikni baholash masalasiga kelinsa, bunda nega «Kreativlikni baholash» g'oyasi bilan shug'ullanish juda qiyin? Nega ko'pchilik uchun bu so'zlarning birikmasi hayratlanarli qarama-qarshilik sifatida qayd etiladi? Baholash va kreativlikni amalda birlashtirishda qiyinchilikka duch kelishning sabablaridan bir sifatida kreativlik va baholashning aqliy modellari bir-biriga mos kelmaydi deb ko'rsatish mumkin.

### KREATIVLIKNI BAHOLASH

Kreativlikni baholash natijasini qayd etish uchun tanlab olingan respondentlar bilan «Kreativlikni baholash» so'rovnoma o'tqazildi. Ta'kidlovchi eksperiment so'rovnoma natijalarining ko'rsatishicha respondentlarning 13% ida kreativlikning quyi darajasi qayd qilindi. Ya'ni, ularda ijodiylik, mustaqillik, nostandart munosabat, orginallik, egiluvchanlik past darajada ekanligini kuzatish mumkin. Respondentlarning 50 %i esa o'rta daraja va 37 % i yuqori darajani namoyon qildilar. O'rta darajani ko'rsatgan ko'rsatkichlarga sabab bo'lgan talabalarda kreativlik, muammoga nostandart munosabat, kreativ munosabat, ijodiy nodatiy yondashish ko'nikmalari o'rtacha darajada ekanligidan pedagogik jarayonda ularning nisbatan faol, mazmunli ishtorok etishlarini ko'rish mumkin.

Yuqori darajani ko'rsatgan respondentlarda faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, original fikrlash, muloqotchanlik, fikrlarining egiluvchanligini alohida ta'kidlash lozim.

### **MUHOKAMA**

Kreativlik va baholash singari muayyan masalalar uchun talabalarning madaniy modellari ularni aql va amaliyotda qanday birlashtira olishiga ta'sir qiladi.

Tadqiqot mobaynida yuqori natijani qo'lga kiritish maqsadida qo'llanilgan metodlar va so'rovnomalar talabalarning madaniy modellarini ham o'rganib, aql va amaliyot birligini hosil qilish edi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar hamda talabalar jamoasining kreativlik darajasini baholash tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda ham o'zini namoyon etadi.

### **XULOSA**

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda ularga bilim berayotgan o'qituvchilar faoliyatini kuzatish, ular bilan olib borilgan suhbatlar, o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida talabalarda kreativ yondashish, kreativ munosabat bildira olish, kreativ qobiliyat ko'nikmalari, tadqiqotchilik ko'nikmalari hamda ularni rivojlantirishning ma'lum bosqichli texnologiyasining ishlab chiqilishiga asos bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Cramond, B. & Wang, L. (2012). The audacity of creativity assessment. In S. Hunsaker (ed.), Identification of students for gifted and talented education services: Theory and practice, pp. 337– 361. Mansfield, CT: Creative Learning Press.
2. Dewey, J. (1938/2008). The Later Works of John Dewey, Vol. 4, 1925–1953: 1929: The Quest for Certainty (Collected Works of John Dewey). Carbondale, IL: Southern Illinois University Press.
3. Guilford, J. P. (1950). Creativity. *American Psychologist*, 5, pp. 444–454.
4. Wason, P. (1983). Realism and rationality in the selection task. In J. St. B. Evans (Ed.), *Thinking and reasoning: Psychological approaches* (pp. 44–75). London: Routledge & Kegan Paul.
- Zimmerman, C. (2000). The development of scientific reasoning skills. *Developmental Review*, 20, 99–149.